



"OLTIN DARVOZALI YURT" ROMANI HAQIDA

Mahliyo Xudoyberdiyeva Ilhomjonovna

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti 6.1uzb 21-guruhi talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada buxorolik yozuvchi Abdunabi Hamroning "Oltin darvozali yurt" romani, va unda yaratilgan xalq adabiy qahramoni-Go'ro'g'li Sultonning xalq og'zaki ijodi na'munasi bo'lmish dostonlardagi va romandagi ifodasi to'g'risida so'z boradi. Go'rog'li dostonining turli millatlar tomonidan turlicha talqin qilinishi va ilk marotaba nasrda badiiy roman sifatida o'z ifodasini topganligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Go'ro'g'li, doston, epos, qahramonlik, "go'r", "ko'r", "kur", Chambil, sher, qabr, xalifa, sulton.

Abstract. In this article, there is a question about the novel of the Bukhara writer Abdunabi Hamro, "Yurt with the Golden Gate", and the expression of the folk literary hero Gorogli Sultan, who is a model of folk oral creativity, in the epics and in the novel. It goes. It has been revealed that the epic of Gorogli has been interpreted differently by different nations and that it was first expressed as an artistic novel in prose.

Key words: Gorogli, epic, epic, heroic, "blind", "blind", "blind", Chambil, lion, grave, caliph, sultan.

Kirish. Ko`ngil mulki shunday bir xazinaki, u bebahoh manzili yo`q, sarhadsiz. Hech to`lmaydi, boyib boraveradi. Ana shunday "ko`ngil mulki"ga aylangan durdona asarlar esa sanoqli. Ushbu boyliklarning to`plovchisi bu– badiiy adabiyot vakillari; tinglovchi , huzur qiluvchi va baholovchisi esa KITOBXONDIR.



Ko`ngil mulkiga aylangan durdonalar yaratayotgan adiblardan biri, buxorolik iste'dodli yozuvchi va shoir Abdunabi Hamro 1961 yilda Buxoro viloyati Olot tumanida tug‘ilgan. Toshkent Davlat madaniyat institutini tugatgan. O‘tgan asrning 80-yillaridan beri badiiy ijod bilan shug‘ullanib keladi. 1995 yildan beri O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi. “Xiyonat” (1993), “Oq alvasti” (1994), “Otam aytgan qo‘shiqlar” (2002), “Yirtqich” (2003), “Unutilgan qo‘shiq” (2005), “Olis manzillar sari” (2006), “Bolalikka sayohat” (2007), “Qishda ochilgan gul” (2008), “Vaqt daryosi” (2010) kabi she’riy va nasriy kitoblar muallifi. Yozuvchining "Muso rais", "Shoirning janozasi", "Vaqt daryosi", "Olotning odamlari", "Izboq", "Qirq yillik qasos" nomli hikoyalari o‘z mazmuni va hayotiyligi bilan ajralib turadi.

Adib o‘nlab hikoyalari va qissalar yaratib, bugungi o‘zbek nasrini boyitib kelmoqda. Yaqinda yozuvchi roman janriga qo‘l urdi. U "Oltin darvozali yurt" nomli romani orqali adabiyotimizga yangilik olib kirdi desak, yanglishmaymiz Roman xalq og‘zaki ijodidagi mashhur qahramon Go‘ro‘g‘li Sultonga bag‘ishlangan.

Asosiy qism. Folklordagi "Go‘ro‘g‘li" dostoni— xalq og‘zaki poetik ijodi yodgorligi. Yaqin va O‘rta Sharq, Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz xalqlari orasida keng tarqalgan qahramonlik eposi, dostonlar turkumi. Turkumga birlashgan dostonlar turli davrlarda yaratilgan. Ulardan ayrimlarining ildizlari bir yarim-ikki ming yil ilgarigi davrlarga borib taqaladi. Bu dostonlar taxminan 17-asrdan boshlab bir turkumga birlasha boshlagan. Go‘ro‘g‘li obrazi, uning doimiy yo‘ldoshi G‘irot, epik ozodlik o‘lkasi Chambil yurti, an’anaviy obrazlar Soqibulbul, Hasan Ko‘lbar, Ahmad Sardor kabilar orqali bir-birlari bilan dostonlar o‘zaro birlashadi. O‘zbek xalqi Go‘ro‘g‘li haqida „Kunlarim“, „Go‘ro‘g‘li“, „Go‘ro‘g‘libek — zo‘r botir“, „Armonim qolmadni“, „Bormi jahonda“ kabi uning qahramonona kurashini madh etadigan qator termalar, 80 ga yaqin dostonlar yaratgan. Ozarbayjon versiyasining



13 dostonini yozib olib, 1842-yilda uni inglizcha tarjimasi bilan birinchi marta nashr etgan diplomat Xodzko: «Osiyoda biror burchak yo'qki, u yerda Go'ro'g'lining nomi aytilmasin. Hatto Bessarabiya va Moldaviyada uning otini eshitasiz. Agar adiblarning shuhrati va mashhurligi ularning o'quvchilarining soni bilan hisoblansa, unda Firdavsiy Ko'ro'g'lidan biroz ortiq bo'ladi»,— deb yozgan edi [<https://abiturtest.uz>]. Darhaqiqat, Go'ro'g'li dostonini bilmaydigan, u bilan tanish bo'lмаган туркий халqlar farzandi bo'lmasa kerak.

Go'ro'g'li nomining talqinlarida turli yondashuvlar mavjud. Jumladan, uning "go'r"-qabrdagi tug'ilishi motivini asoslaydigan qarashlar ham ustuvorlik kasb etgan. Uning "ko'r" otaning farzandi" ekanligini asoslaydigan variantlar ham mavjud. Shuningdek, "go'r" va "ko'r" dan tashqari "kur" o'zagi esa "mard", "alp", "botir" degan ma'nolarni ham beradi va romanda Go'ro'g'li nomi sher tarbiyalagan bola, sher bolasi ma'nosida Sherog'li-Go'ro'g'li tarzida kelgan.

"Oltin darvozali yurt" romanida ham voqealar an'anaviy tarzda, ya'ni Go'ro'g'lining tug'ilishidan boshlanadi. Go'ro'g'lining tug'ilishidagi g'ayritabiylilik, unga ona sherning g'amxo'rliklari, ilk bolaligi, o'spirinlik davridagi "g'alati" qiliqlari ajoyib tarzda ifodalangan. Romanga ham ilk asotir va afsonalarning, qadimgi tasavvur va e'tiqodlarning ba'zan yorqin, ba'zan xira qoldiqlari tasvirlari zaminidagi ma'nolarning ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Romanda ko'plab badiiy timsollar yaratilgan. Sulton, Cho'qon darvesh, Rajab ayg'oq, Ravshan baxshi, Qoraqul mergan, Beshim bangi, Ahmad Sardor, Oyxumor, Yusuf, Rayhon Arab, Yunus pari, Jumanazar sardor, Temirtan Bahodir singari obrazlar keltirib o'tilgan.

Asar kompozitsion jihatdan uch qismga bo'lingan. Birinchi qism: "Xaloskorning tug'ilishi". Ikkinci qism: "Asqar tog' tomonlarda". Uchinchi qism: "Chambilbelning quyoshi" deb nomlangan. Birinchi qismda Go'g'lining qabrdagi yaratganning inoyati bilan tug'ilishi va uni ona sher o'z bolasi kabi



g'amxo'rlik qilishi tasvirlanadi. Cho'qon darvesh bir ziyofatda shaytonlab qolib, hammani hayratda qoldiradi va ko'rning o'g'li Sultonni o'ldirishini bashorat qiladi. Sulton Rajab ayg'oqqa bolani topishni buyuradi. Aybi bo'lmasa-da, o'n besh yoshdan o'tgan bolalarning barini gumdon qilishga farmon beradi. Bu holatdan ko'rishimiz mumkinki, shoh kaltabin, nodon, hukmdorlikka munosib emasdi. Buni uning: "Xalq kim o'zi? Xalq bir poda, qay tomonga yetaklasang ketaveradi"[A.Hamro. 2011.10]. degan so'zlari ham isbotlab turibdi. Oddiygina hayvon va Sultonning ushbu farqida ham ham fikrimiz isbotini topadi:"Shu paytga qadar to'qayzorni boshlariga ko'tarib vovullayotgan tozilar chog'roq tepalik ustida qad kerib turgan Nar Sherni ko'rib dumlarini qisib qolishdi. Nog'orayu tablalar ham vag'ir-vug'ur qilib kelayotgan sarbozlar ham jim. Ayni daqiqalarda ikki hukmdor, ikki yov ro'para kelishmoqda edi. Birining qayg'usi-saroyni noyob teri bilan bezatish va umrbod shon-shuhratga burkanish, ikkinchisining umidi- o'z mulki bo'lgan yerlarda emin-erkin yurish uchun ikki oyoqli, sershovqin jonzotlarni quvish."[A.Hamro. 2011.16]. Yoshligidanoq qobiliyatli, serg'ayrat bola bo'lgan Go'ro'g'li "Kamolotning o'ttiz uch bosqichi" deb atalguvchi eng kamida o'n besh yilga mo'ljallangan maxsus tayyorgarlik dasturini bir yilda ado qiladi. Pahlavonligi bilan nom qozonadi. Hattoki, Rayhon arabni bir ko'tarib urishda belini sindiradi. Ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan nurab borayotgan davlatning munosib hukmdori sifatida maydonga chiqadi. U xalifaga qarshi mardonavor kurashadi. Bag'dodda o'qib, taniqli olimlardan dars olgan, yurt erki, inson qadri, mustabidlar zulmi to'g'risidagi fikri pishib yetilgan Sulton Bahodir unga yordam beradi. Chambilbelni Go'ro'g'libek mustaqil davlatga aylantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, romanda Go'ro'g'libekning tug'ulganidan to yurtini mustaqil qilguniga qadar bo'lgan davr yoritib berilgan. Ravon va sodda, xalqona tilda yozilgan asar kitobxonni Go'ro'g'li singari yurtni sevishga, unga sadoqadli farzand bo'lishga chorlaydi. U har bir mansab egasi ozod



yurt uchun jon kuydirib ishlashga chorlaydi. Yozuvchi bilan suhbat bo'lgan jarayonida hali asar tugallanmaganligini, davomi yozilayotganligini aytdilar. Shu sabab roman haqidagi kuzatishlarimiz ham davo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdunabi Hamro. Oltin darvozали yurt. Toshkent., "O'zbekiston" 2011.
2. Axmedova, Shoira. "The role of the jadid press in the formation of uzbek literary criticism." *Konferensii*. 2021.
3. Axmedova, Sh. N., & Nazarova, D. (2021). Adabiy portret janrining nazariy jihatlari xususida. *mejdunarodnyj jurnal iskusstvo slova*, 4(3).
4. Axmedova, Shoira Nematovna. "O'zbek va fransuz adabiyotshunosligida portretnavislik taraqqiyoti." *mejdunarodnyj jurnal iskusstvo slova* 3.6 (2020).
5. Axmedova Sh. N. Xurshid Davronning adabiy–estetik qarashlari: Axmedova Shoira Nematovna, BuxDU o'zbek adabiyoti kafedrasi professori, f. f. doktori //Obrazovanie i innovatsionnye issledovaniya mejdunarodnyy nauchno-metodicheskiy jurnal. – 2022. – №. 6.2. Maxsus son. – S. 20-28.
6. <https://abiturtest.uz>.
7. Safarov O. va boshqalar. Xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent. 1976.